

AUTIZM: BELGILARI, SABABLARI VA DAVOLASH

Adashaliyeva Mexribonu Mirzoxid qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi,

Navoiy nomli davlat stipendiyasi sohibasi

e-mail: mexribonuadashaliyeva@jmail.com, +99894 736 27 37

<https://orcid.org/0009-0001-2886-923X>

Ilmiy rahbar: Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

E-mail: oribboyevad@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-2827-7166>

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm tushunchasi, uning paydo bo'lish sabablari va asosiy belgilari to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan. Autizm tushunchasiga berilgan ta'riflar izohlanib, uning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, autizm qanday holatlarda namoyon bo'lishi va uni davolash usullari haqida bayon qilinadi. Autizmning asosiy belgilari, kelib chiqish sabablari atroflicha o'rganilib, olingan xulosalar umumlashtirilib, davolash usullari bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maxsus pedagogika, autizm, sindrom, kasallik, ruhiyat, nogironlik, davolash usullari.

АУТИЗМ: СИМПТОМЫ, ПРИЧИНЫ И ЛЕЧЕНИЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция аутизма, его причины и основные симптомы. Даются определения понятия аутизма и раскрывается его сущность. Также описываются условия, при которых проявляется аутизм, и методы его лечения. В статье подробно изучаются основные симптомы и причины аутизма, обобщаются сделанные выводы, а также представлены предложения и рекомендации по методам лечения.

Ключевые слова: специальная педагогика, аутизм, синдром, болезнь, психология, инвалидность, методы лечения.

AUTISM: SYMPTOMS, CAUSES AND TREATMENT

Annotation: This article discusses the concept of autism, its causes and main symptoms. The definitions given to the concept of autism are explained and its essence is revealed. It also describes the conditions in which autism manifests itself and the methods of its treatment. The main symptoms and causes of autism are thoroughly studied, the conclusions drawn are summarized, and suggestions and recommendations for treatment methods are presented.

Keywords: special pedagogy, autism, syndrome, disease, psychology, disability, treatment methods.

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda maxsus pedagogikada "autizm" tushunchasi keng qo'llanilib kelinmoqda. Biroq, ayrim holatlarda mazkur tushunchani noto'g'ri talqin qilish holatlari ham uchramoqda. Aksariyat olimlar tomonidan berilgan ta'riflardan kelib chiqib, umumlashgan holda ta'rif beradigan bo'lsak, autizm bu – ijtimoiy-iqtisodiy holat bo'lib, kishining tibbiy holatlari, boyligi, jinsi, irqi, dini, jamiyatdagi mavqei, umumiy belgilari va boshqa bir qator omillardan qat'iy nazar istalgan kishining hayotida uchrashi mumkin bo'lgan sindrom hisoblanadi.

Millionlab auditoriyaga ega bo'lgan aksariyat ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda autizmga kasallik deya ta'rif beriladi, biroq shunga qaramay, autizm ko'proq sindrom hisoblanadi. U odamning nevrologik holati sanalib, autistik kishilar me'yor tipidagi kishilardan ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar va qobiliyatlar jihatidan farq qiladilar. Autizm aslida kasallik emas va unga odam chalinilmaydi. Haqiqat shuki, turli vaksinalar, kimyoviy texnologiyalar ta'sirida autizm vujudga keladi. Boshqa bir qancha o'z isbotini to'la topib ulgurmagan gipoteza (taxmin) larga qaraganda, bola o'zi autizm bilan tug'iladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maxsus adabiyotlarda autizm sindromiga ega bo'lgan bolalarning nuqsonlari va qo'pol buzilishlari, autizmning sabab va oqibatlarini, davolash masalalari haqida ma'lumotlar ko'plab keltirilgan. Jumladan, xorijlik olimlardan J.Itar, E.Bleyler, L.Kanner, G.Asperger, S.Mnuxin, E.Ornis, mahalliy olimlarimizdan esa L.Mo'minova, Dilbar Elamanova kabilarni aytish mumkin.

Autizmga ega bo'lgan bolalar me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular rivojlanishdan orqada qolish, nutqning aloqa qilish vazifasini bajara olmasligi sababli ommaviy maktabda ta'lim ololmasligi bilan ajralib turadilar [1].

Autizm (grekcha "autos" – "o'zim" degan so'z) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Bemorlarning

harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallikni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha [2].

Autizm ijtimoiy-iqtisodiy holati, boyligi, statusi, umumiy sog'liq holatlari va boshqa-boshqa omillardan qat'i nazar istalgan kishining hayotida uchrashi mumkin. Bu autizm ertaga sizning, mening yoki boshqa istalgan kimningdir hayotiga bir bolakay hamrohligida kirib kelishi mumkinligini anglatadi. Autizmdan hech kim himoyalangan [3].

Shuningdek, yana bir ta'rifda: autizm (inglizcha "infantile" – autism, bolalik autizmi – "childhood autism") – miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir hamda aloqada aniq va keng qamrovli tanqislik, shuningdek cheklangan qiziqishlar va takrorlanadigan harakatlar bilan tavsiflangan kasallik. Bu belgilarning barchasi uch yoshdan oldin paydo bo'la boshlaydi. Yengilroq belgilar va alomatlar qayd etilgan shunga o'xshash holatlar autizm spektrining buzilishi deb ataladi [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Autizmning sabablari haqida gap borganda, miyadagi sinaptik aloqalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi genlar bilan chambarchas bog'liq, ammo kasallikning genetikasi murakkab va hozirgi vaqtda autizm spektrining buzilishining paydo bo'lishiga nima ko'proq ta'sir qilishi aniq emas. Kamdan kam hollarda kasallikning tug'ma nuqsonlarni keltirib chiqaradigan moddalarga ta'sir qilish bilan bog'liq aloqasi topiladi. Boshqa taklif qilingan sabablar munozarali, xususan, autizmni bolalik davridagi emlashlar bilan bog'laydigan gipoteza uchun ilmiy dalil yo'q. Shuningdek, homiladorlik davridagi ayrim ta'sirlar (infeksiya, dori-darmon, toksinlar) ham kasallikka sabab bo'lishi ehtimoli mavjud. Ba'zi tadqiqotlarga ko'ra ota va ona yoshi katta bo'lganda ham autizm xavfi oshishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, yetuk olmlarning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, autizmning yuzaga kelish sabablari bugungi kungacha aniq asoslab berilmagan. Autizm irsiy va atrof-muhit omillarining yuzaga kelishidagi sabablar qatoriga kiradi. Bu o'rinda adashtirmaslik kerakki, autizm avloddan-avlodga doim

o'tadi deyish ham noo'rin, ya'ni u inson genetikasining qaysidir burchaklarida uxlab yotishi, asrlab yuzaga chiqmasligi va nechadir avlod almashinuvidan keyin qandaydir sabab bilan yoki shunchaki sababsiz yangi tug'ilgan chaqaloqqa hamroh sifatida hayotingizga kirib kelishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, sizning nechadir asr avval yashagan ajdodingizning genlaridagi noodatiylik aynan sizning hayotingizga ta'sir o'tkazishi mumkin. Umuman olganda, homiladorlikda vitamin yetishmovchiligi, stresslar, atrof-muhit ifloslanishi, katta yoshdagi ota-onalik kabi holatlar autizmga ehtimoliy sabablari sifatida ko'riladi.

Autizm – bu nerv sistemasi rivojlanishning buzilishi bo'lib, uni aniqlash uchun bitta alomat yetarli emas, buing uchun xarakterli triada talab qilinadi, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning yo'qligi, buzilgan o'zaro aloqa hamda cheklangan manfaatlar va takrorlanuvchi xatti-harakatlar namoyishi.

Autizm tashxisi qo'yilgan odamlar takrorlanuvchi yoki cheklangan xatti-harakatlarning ko'plab shakllarini namoyish etadilar, ya'ni ular qayta ko'rib chiqilgan takroriy xatti-harakatlar shkalasi (RBS-R) bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

- stereotiplash – maqsadsiz harakatlar.
- majburiy xulq-atvor – bu muayyan qoidalarga ataylab rioya qilish.
- bir xillikka bo'lgan ehtiyoj, o'zgarishlarga qarshilik;
- ritual xatti-harakat – kundalik ishlarni bir xil tartibda va bir vaqtning o'zida bajarish.
- cheklangan xulq-atvor tor yo'naltirilgan bo'lib, unda odamning qiziqishi yoki faoliyati, masalan, bitta teledastur yoki o'yinchoqqa qaratilgan.
- avtoagressiya – bu odamning o'ziga shikast etkazishga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan faoliyat.

Shu o'rinda keng jamoatchilik o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini ko'radigan bo'lsak, unda qatnashganlar turlicha javoblarni berishgan. Eng ko'p qatnashuvchilar, ya'ni 71% autizmni "sindrom" deb javob bergan. Bu autizmning aslida sindrom ekanligini ko'rsatadi. "Kasallik" deb javob berganlar esa 16%, "nogironlik" deb hisoblaganlar 3% hamda "bilmayman" deganlar 10% ni tashkil qildi. Shunday qilib, aksariyat odamlar autizmni sindrom deb biladilar [3].

Kundalik hayotimizda autizm mavzusi bilan bog'liq salbiy tavsiflar, tasavvurlar ko'pligi sababli, autistlar deganda ko'pchilikning xayoliga aqliy qobiliyatlari normadan orqada bo'lgan, o'z harakatlarini nazorat qila olmaydigan odamlar keladi. Aqliy zaiflik va autizm mutlaqo alohida-alohida tushunchalar bo'lib, autist kishi intellektual jihatdan normatipik kishiga qaraganda ustunroq bo'lishi yoki aksincha autistik bo'lmagan kishilarda aqliy jihatdan orqada qolish kuzatilishi mumkin. Shuningdek, autistik shaxslar odatda normatipik shaxslardan tashqi ko'rinishi jihatidan ajralib turmaydi.

Ta'kidlash joizki, autizm ikki turga bo'linadi, ya'ni yuqori funksiyali autizm va past funksiyali autizm. Yuqori funksiyali autizm bilan yashaydigan odamlar odatdagi hayotda siz-u bizning oramizda yashay oladilar. Ular takrorlanuvchi harakatlar, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar, odamlar bilan aloqaga kirishishdan ko'ra ma'lum turdagi ishni yoqtirish kabi o'ziga xosliklarni namoyon qilishlari mumkin. Past funksiyali autizm esa ko'pincha yondosh sog'lik muammolari bilan kelib, ko'pincha doimiy parvarish va ko'makni talab qiladi.

Eng asosiy jihati shundaki, autizmni u bilan yondosh kelishi mumkin bo'lgan tibbiy holatlar bilan aslo adashtirib yubormaslik juda muhim. Shuni ham unutmaslik kerakki, autizm insonga umr davomida hamroh bo'ladi. Maxsus terapiyalar yordamida odatiy hayotda yashashga xalaqit beruvchi jihatlarni korreksiya qilish mumkin, biroq autizm davolanmaydi. Chunki, u yuqorida aytilganidek, kasallik emas.

Ilm-fanda autizm juda keng tushuncha va hamon o'rganilayotgan mavzulardan biridir. Autizmning ilk belgilari go'dakning 12-14 oyligidayoq namoyon bo'ladi. Olingan statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda AQSHda har 36 nafar boladan biri autizm tashxisini olyapti. Buni AQSHda ovqatlanish, atrof-muhit ifloslanishi, mentalitet muammolari bilan bog'lashga harakat qilsalar-da, ilmiy manbalar buni rivojlangan mamlakatlardagi diagnostikaning rivojlanganligi bilan asoslaydilar.

Autizmning ilk belgilarini ertaroq payqash yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning oldini olishda juda muhim hisoblanadi, chunki to'g'ri parvarish qilingan autistik bola kelajakda kutilganidan yaxshiroq natijalar ko'rsatishi

mumkin. Autizmning ilk belgilari sifatida eng keng tarqalgan simptomlariga quyidagilar kiradi:

- bola odatda ismiga e'tibor bermaydi;
- yolg'iz o'ynashni yoqtiradi;
- ko'zga qarashdan qochadi;
- 12-14 oylik davrda ham oddiy murojaat nutqini tushunmaydi;
- nimanidir istaganda ko'rsatkich barmog'ini ishlatmaydi;
- aylanuvchi jismlar, masalan, mashina baloniga boshqa o'yinchoqlardan ko'proq qiziqadi;
- til imkoniyatlari jihatdan ortda qola boshlaydi;
- boshini devorga, yerga yoki qo'li bilan uradi.

Yuqorida sanab o'tilgan belgilarning hammasi ham va doim ham kuzatilmaydi. Nutq buzilishlari, gapira olmaslik, ijodiy yondashuvni talab qiluvchi o'yinlarni o'ynay olmaslik ham autizm belgilari bo'lishi mumkin. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, autizmga chalingan bolalarning harakatlarida bir xillik, uyqu buzilishlari, tajovuzkorlikka moyillik va qo'rquv ham kuzatiladi. Lekin ota-ona tomonidan ularning bittasi payqalgan taqdirda ham, bu shifokor qabuliga borish uchun asos bo'la oladi.

Autizm belgilari har bir odamda farq qilishi mumkin va odatda erta bolalikda paydo bo'ladi. Autizm spektriga to'g'ri keladigan ba'zi alomatlar quyidagilar: **ijtimoiy muloqotda cheklanish, muloqotdagi qiyinchiliklar, takroriy va cheklangan xatti-harakatlar, sensor sezuvchanlik** yoki befarqlik. Alohida ta'kidlash muhimki, ko'p hollarda farzandidagi o'zgarishlarni sezgan ota-onalar ham yo hammasini vaqt izmiga topshirib, befarqlikni tanlashadi yoki jamiyatdan (odamlardan) uyalgan holda farzandidagi o'ziga xoslikni hammadan yashirishga intilishadi.

O'zbekistonda ham autizm rehabilitatsiyasi bilan bog'liq juda ko'plab muammolar bor. Masalan, kuchli terapevt va defektolog mutaxassislarining yetishmasligi, tashxis va korreksiya metodlarining eskirganligi, ota-onalarning va keng jamoatchilikning autizm bilan bog'liq qarashlari, ixtisoslashtirilgan muassasalarning kamligi kabilar shular jumlasidandir.

Autizmga chalingan bolalarning bir qismi o'рта maktabni tugatishadi, kasb o'rganishadi, nufuzli joylarda ishlashadi. Shunga qaramasdan, autizmga chalingan insonlarning shaxsiy hayotni izga tushirishlari va oila qurishlari juda qiyin bo'ladi.

Autizmni davolashda erta tashxis qo'yish va davolash katta ahamiyatga ega. Davolashdan asosiy maqsad autizimli shaxsning ijtimoiy va individual qobiliyatlarini yaxshilashdan iborat. Shu maqsadda, xulq-atvorni tarbiyalash va maxsus terapiya usullari qo'llaniladi. Qo'llaniladigan davolanishning oilaga mos bo'lishi ham o'ta muhimdir. Nutq terapiyasi, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini egallashga qaratilgan terapiya qo'llaniladigan muolajalar qatoriga kiradi. Dori-darmonlar depressiya, diqqat yetishmasligi – giperaktivlik kabi autizmga hamroh bo'lgan sharoitlarda qo'llanilishi mumkin. Autizmni davolashda ota-onalarning o'rni ham juda muhimdir.

Mutaxassislar autizmni davolash uchun bir nechta usullarni taklif etishadi. Ularning aytishlaricha, kichik yoshdagi bemorga har tomonlama yordam berish zarur. Ya'ni, davolash muolajasi o'zida tibbiy aralashuvni ham, bolaning ijtimoiy moslashuvini ham, ruhiy ko'makni ham jamlagan bo'lishi kerak. Ayrim hollarda nafaqat bolaga, balki uning ota-onasiga ham ruhshunos ko'magi kerak bo'ladi. Kasallikni davolash jarayonida bolaning ota-onasi va boshqa oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini yaxshilashga ham katta e'tibor qaratiladi, unga qo'rquvni yengish, agressiv xurujlarga qarshi kurashish o'rgatiladi. Autizmga chalingan bolalarning ota-onalaridan katta mas'uliyat talab etiladi. Eng muhimi, autizmni – dahshatli hukm deya qabul qilmaslikdir.

XULOSA

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, autizm aslida qo'rqinchli tushuncha emas, shu bilan birga autizm xavfli ham emas. Autistlar bugun siz va bizning oramizda yashaydi. Biz yetarli bilimga ega emasligimiz ortidan ularni odamovi, introvert yoki boshqa qandaydir nomlar bilan atashimiz mumkin. Ko'pgina ota-onalarning autizmning ilk belgilari haqida tushunchaga egaligi juda muhim omil hisoblanadi.

Autizm – turli xil simptomlarni keltirib chiqaradigan murakkab neyro-rivojlanishning buzilishidir. Har bir autistik shaxs o'ziga xosdir va alohida yondashuvni talab qiladi. Erta tashxis, tegishli muolaja va tibbiy yordam bilan autistik shaxslarning hayot sifatini yaxshilash mumkin. Davom etayotgan

tadqiqotlar autizm nima uchun paydo bo'lishini aniq tushunish va samarali davolash usullarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. L.Mo'minova. Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari (uslubiy qo'llanma). Toshkent, 2015-yil.
2. <https://kun.uz/kr/news/2018/12/27/autizm>
3. D.Elamanova. Autizmning ilk belgilari: ota-onalar nimalarni bilishi kerak? <https://xabar.uz/uz/tahlil/autizmning-ilk-belgilari>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Autizm>